

МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



Илимий-методикалық журнал

2024

1/3-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлигі тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис



Nurmatova I.T. Maktabgacha katta yoshdagи bolalarning mustaqil musiqiy faoliyatini tashkil etish uslubi	491
Jabborova O.M., Kamolova F.K. Boshlang‘ich ta’limda individual metodikadan foydalanish mazmuni	496
Sayliyeva M. M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining gumanitar fanlar turkumimi o‘qitish jarayonida kreativlik ko‘nikmasini shakllantirish	504
Eshmanova N.N., Matupayeva Sh.Z. Boshlang‘ich ta’limda innovatsiyalarni joriy etishning o‘ziga xos imkoniyatlari	508
Mamatova A.M. O‘zbekistonda tarbiya masalasining yangi idroki	511
Tilanova S.B. STEAM yondashuvি asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ekologik kompetensiyasini rivojlantirish	517
Usmanova Q.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash asoslari va tizimi	522
Mambetaliyev Q.A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tanqidiy fikrlashga o‘rgatishning pedagogik asosi	525
Xo‘jamiyorov S.Ch. Maktabgacha yoshdagи bolalarning mas‘uliyat hissini shakllantirishda tarbiyachi va ota-onalar hamkorligining ahamiyati	529
Typyumbetova Z.IO. Maktabgacha yoshdagи bolalarning xulq-atvorining shakllanishida nutqiy faoliyatning o‘rni	535
Xamidjonova M. Maktabgacha yoshdagи bolalarda innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning ahamiyati	539
Bo‘riyeva T.A. Bolalarning tabiatga oid tadqiqiy-ijodiy ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida tarbiya turlarini rivojlantirish metodikasi	544
Tirkashov M. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarida axborot-tahliliy yondashuv asosida empirik tushunchalarini shakllantirish metodlari	549
Berdiyev B. R. Matematika darslarida kombinatorika elementlari, mantiqiy masalalar yechishga o‘rgatish metodlari	553
Keldiyarova V.B. Konstruksiyaviy usullar orqali bolalarda ko‘rgazmali-obrazli tafakkurni shakllantirish	557
Keldiyarova M.F. Yosh mutaxassislarning kasbiy adaptatsiyasi jarayoniga tayyorlash	562
Yakubova G.L. Rasmiy va norasmiy ta’limning integratsiyasi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy munosabatini shakllantirish metodikasi	567
Ashirova S.B. Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning metodik ta’monoti	571
Tilanova N.T. Montessori metodikasida bolalarga ekologik tarbiya berish	576
Nazirov U.Q. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari	581
Eshchanova G.O., Jumaniyozova N. F. Boshlang‘ich sinf o‘qish va matematika darslarida interfaol usullardan foydalanishga zamonaviy yondashuv	585
Rasulova Z. O‘yinlar vositasи asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish – didaktik zaruriyat sifatida	591
Ravshanqulova D.R. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarini turizm vositasи orqali ma’naviy-ahloqiy sifatlarini shakllantirish	595
Eshchanova G.O., Boltayeva M.I. Boshlang‘ich ta’limda sinfdan tashqari o‘qish darslarini tashkil etishga zamonaviy yondashuv	601
Shabbazova D.R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning ahamiyati	605
Xoliyeva S.R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy fanlarni o‘qitishda kreativlikni rivojlantirish	610
Shermatova U.Sh. Boshlang‘ich sinflarda ekologik ta’limni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari	613
Shermatova U.Sh. Boshlang‘ich sinflarda ekologik ta’limni rivojlantirish metodikasi	618
Ne’matova D.B. Mantiqiy masalalar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy fikrlashni rivojlantirish	623



BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INDIVIDUAL METODIKADAN FOYDALANISH MAZMUNI

Jabborova O.M.

ChDPU dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Kamolova F.K.

talaba

Tayanch so‘zlar: ta’lim, boshlang‘ich, individuallik, metodika, bilim, ko‘nikma, zaruriyat.

Ключевые слова: образование, начало, индивидуальность, методика, знания, умения, необходимость.

Key words: education, beginning, individuality, methodology, knowledge, skills, necessity.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida mamlakatimizda 2030 yilga qadar boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish ko‘rsatkichlarini yanada oshirish vazifalarini qo‘yilgan [1]. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limni o‘zlashtirish jarayonida muhim o‘rin tutadigan metodikalarni takomillashtirish ham dolzarb bo‘lib turibdi. Bunda ayniqsa, individual metodikalardan foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Bu o‘rinda e’tiboringizni individual metodika tushunchasi taxliliga tortamiz.

“Individual” tushunchasi lotincha bo‘lib, bo‘linmas ma’nosini anglatadi [2]. Shu jihatdan individul tushunchasi har bir shaxsni o‘ziga dahldor bo‘lgan erkinliklar, kechinmalar va huquqlarni ifodalaydi. Pedagogik jihatdan individuallik - ta’lim va tarbiya vositasida shaxsning shaxsiy kechinmalar, xatti-xarakatlar va amaliy faoliyatga ega bo‘lishini bildiradi. Shu sababli pedagogik adabiyotlarda individuallik masalasiga muhim e’tibor qaratilib, uning imkoniyatlaridan oqilona foydalanib kelinmoqda.

“Metodika” tushunchasi ham lotincha bo‘lib, uslub, usul va o‘ziga xoslik ma’nolarini anglatadi. Pedagogik ma’noda metodika ta’lim va tarbiya jarayonini amalga oshirish yondashuvlari majmuuni ifodalaydi [3]. Shu ma’noda pedagogik tadqiqotlarda metodika va uslub atamalari uyg‘un va teng ishlataliladi. Ilmiy pedagogik tadqiqotlarda asosan metodika atamasi ishlatalishini eslatib o‘tish joiz. Shuni ta’kidlash lozimki, har bir ta’lim beruvchining (o‘qituvchining, pedagogning,



murabbiyning) o‘z metodikasiga ega bo‘lishi individuadal metodika tushunchasi negizini tashkil qiladi.

Individual metodika – bu ta’lim beruvchining ta’lim va tarbiya jarayonini o‘z shaxsiy bilimi, yondashuvi va uslublariga tayangan holda amalga oshirish vositasidir. Individual metodika Pedagogika fani tarixida asrlar davomida o‘rganilib va rivojlanib kelgan. Bu o‘rinda ana shu masalaning eng muhim jihatlariga e’tiboringizni tortamiz va bunda “Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati” kitobida keltirilgan ma’lumotlarga asoslanamiz.

Qadimgi davrlarda individual metodika dastlab ota-onalar tomonidan qo‘llanilgan. Bunda oila tarbiyasida bola ta’lim – tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi shaxs o‘zining fikri va yondashuvidan kelib chiqib ta’lim jarayonini amalga oshirgan. Shu sababli oila tarbiyasida amal qiladigan metodika asosan individuadal metodika shaklida bo‘lib, uning negizini amaliyat tashkil qiladi.

Individual metodikaning nazariy masalalari qadim davrlardan boshlab faylasuf-pedagoglar tomonidan taxlil qilib kelinmoqda. Jumladan, Aflatun “har bir kishining individual xususiyatga ega bo‘lishi, unga nisbatan maxsus yondashishni taqozo etadi” deydi. Demak, ta’lim va tarbiya jarayonida har bir ta’lim oluvchiga individual yondashish ularning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish asosidir. Aristotelning fikricha, ta’lim-tarbiya jarayonida har bir ta’lim oluvchiga individual munosabatda bo‘lish zarurdir. Chunki individual munosabat ta’lim oluvchining bilim olish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Ushbu faylasuf-pedagoglarning yondashuvlari keyinchalik barcha davrlarda pedagoglar tomonidan qabul qilinib, ta’lim va tarbiya jarayoniga tadbiq etib kelinmoqda.

Bola ta’lim muassasalariga chiqqanidan so‘ng ilmiy individual pedagogikani qo‘llash jarayoni boshlanadi. Shu jihatdan mamlakatimizda individual metodikani qo‘llash maktabgacha ta’limdan oly ta’limgacha bo‘lgan ta’lim tizimida amalga oshiriladi. Bunda ta’lim oluvchilarning yosh, jismoniy va ruhiy jihatdan rivojlanishi hisobga olinib individual metodikani qo‘llash ko‘لامи kengaytirib boriladi.

Savol tug‘ildi: Individual metodikaga qanday ega bo‘lish mumkin? Mazkur savolning yechimini aniqlab olish bitiruv malakaviy ishimizning muhim nazariy masalalaridan birini tashkil qiladi. Pedagogik adabiyotlar, ilmiy tadqiqotlar bilan tanishish va kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, individual metodika ta’lim beruvchilarda bir necha bosqichlar asosida tarkib topadi. Bizning fikrimizcha, mazkur asosiy bosqichlarni quyidagicha idrok etish maqsadga muvofiq bo‘ladi [4]:

Birinchi bosqich (o‘quvchilik yillari). Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilar ta’lim olish jarayonida ta’lim beruvchilardan individual yondashuv asoslarini o‘zlashtiradi. Shu sababli ularda individual metodikaning dastlabki elementlari tarkib topadi. Vaqt o‘tgan sari bunday yondashuv rivojlanib borishini eslatib o‘tish joiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan va “2022 – 2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish Milliy dasturi” asosida 9-10-



sinf o‘quvchilari kasb va hunarga maqsadli yo‘naltirilmoqda. Shu jihatdan mazkur imkoniyatdan foydalangan holda o‘quvchilarni pedagoglik kasbiga yo‘naltirish va ularda dastlabki tarzda individual metodika asoslarini tarkib toptirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misol uchun, o‘quvchilar o‘zlarining fikrlarini mustaqil bildirish ko‘nikmasini egallasa, ularda individual metodika asoslaridan biri tarkib topgan hisoblanadi. Chunki mustaqil fikrlash individual metodikaning dastlabki asoslaridan biridir. Shu ma’noda o‘quvchilar qiziqishi va kasbga bo‘lgan munosabatiga ko‘ra “Bo‘lajak pedagoglar” guruuhlariga bo‘linishi va bu guruhda maxsus mashg‘ulotlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan individual metodikaga ega o‘qituvchilarning yordamidan foydalanish keng imkoniyatlarni beradi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini haftalik pedagogik amaliyot davrida amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual metodikalarini o‘rganishga yo‘naltirish kutilgan samarani beradi.

O‘quvchilarni individual metodika asosida pedagoglikka yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega. Keyingi paytlarda mazkur masala umumiy o‘rta ta’limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilanmoqda. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagи “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dasturni tasdiqlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida umumiy o‘rta ta’lim jarayonida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish va bunda boshlang‘ich ta’limdan boshlab tushunchalar berib borishga e’tibor berish vazifalari qo‘yilgan. Buning sababi shundan iboratki, boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning ongi shakllanish jarayonida bo‘lganligi uchun taqdim etiladigan bilim, ko‘nikma va ma’lumotlarni tez qabul qiladi hamda ularga ko‘nikadi. Bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan individual ishlash masalasi muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan individual metodikaning ta’lim va tarbiya jarayonidagi samaradorligi yuqori hisoblanadi.

Pedagogika tarixida metodlarning shakllanishi va tadrijiy rivojlantirish bo‘yicha muhim yondashuvlar bayon qilib o‘tilgan. Ularda asosiy e’tibor dastlab individual metodikaning tarkib topganligi va boshqa metodikalarga asos bo‘lganligiga e’tibor qaratiladi. Shu jihatdan individual metodikaning tadrijiy rivojida va uning o‘quvchi faoliyatida tutgan o‘rnida quyidagilar muhim o‘rin tutadi:

- a) ta’lim va tarbiya jarayonini aniq shaxsga yo‘naltirish;
- b) ta’lim va tarbiya bilan maxsus shug‘ullanish;
- v) ta’lim va tarbiyaning samaradorligini rejalashtirish.

Bunday yondashuv asosida individual metodika tushunchasining mazmuni aniqlashadi. Chunki ta’lim va tarbiyaning aniq shaxsga yo‘naltirishida bilim va ko‘nikmalarni xususiy shaklda tarkib toptirish mayjud bo‘ladi. Mamlakatimiz sharoitida bu vazifa oila va maktabgacha ta’lim muassasalarida bajarilayotganligini eslatib o‘tish joiz. Kelgusida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim bevosita ta’lim tizimida



amalga oshirilishi rejalahtirilgan bo‘lib, bunda maktabgacha ta’lim muassasalarida asosiy ishlarni amalga oshirish yo‘lga qo‘yiladi. Chunki ta’lim muassasasida individual metodika o‘zining pedagogik qonuniyatlariga ega bo‘ladi va oiladagi individual tarbiyalash esa ko‘p hollarda ijtimoiy muhim ta’sirida kechadi. Shu sababli individual metodika oilada ijtimoiy xarakterda va ta’lim muassasalarida esa pedagogik qonuniyat shaklida bo‘ladi.

Individual pedagogikaning tadrijida ta’lim va tarbiya jarayoni bilan maxsus shug‘ullanish bosqichi ham muhim ahamiyatga ega. Unga ko‘ra, ma’lumotli, pedagogik qonuniyatlarini biluvchi va ta’lim oluvchini psixologik jihatdan tushunuvchi shaxslar ta’lim jarayonini amalga oshiradi. Bunda asosiy e’tibor har bir o‘quvchining bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishiga qaratiladi. Buning natijasida individual yondashuv tarkib topadi va o‘qitishning individual metodikasi pedagogik qonuniyatlar asosida rivojlanib boradi. Shu sababli har bir ta’lim beruvchi mazkur jarayonda ishtirok etib, individual metodikalarning rivojlanib borishini ta’minkaydi. Individual metodikaning rivojlanishi ta’lim va tarbiya samaradorligiga, ya’ni har bir ta’lim oluvchining bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Individual metodikaning eng muhim jihatlaridan biri ta’lim va tarbiya samaradorligini yaqqol namoyon qilish bilan belgilanadi. Agar ta’lim oluvchi taqdim etilgan bilim va ko‘nikmalarni talab darajasida o‘zlashtirsa, individual metodikaning samaradorligi namoyon bo‘ladi, agar ta’lim oluvchi bilim va ko‘nikmalarni yetarli darajada o‘zlashtirmsa bunda individual metodikadan noto‘g‘ri foydalanilganligi namoyon bo‘ladi. Shu sababli individual metodikadan foydalanish muayyan darajada ta’lim beruvchilardan mahorat talab qiladi. Bularning barchasi individual metodikaning ma’no-mazmunini anglatishini ta’kidlab o‘tish lozim.

Ikkinchи bosqich (oliy pedagogik ta’lim jarayoni). Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak ta’lim beruvchilarning individual metodikasi ilmiy jihatdan tarkib topadi. Bu oliy pedagogik ta’lim jarayonining asosiy vazifalaridan birini tashkil etishini eslatib o‘tish joiz. Shu ma’noda bo‘lajak ta’lim beruvchilarning individual metodikasi tarkib topishida quyidagi omillar muhim o‘rin tutadi:

- 1) majburiy va tanlov fanlarini o‘qitish jarayoni;
- 2) amaliy mashg‘ulotlar jarayoni;
- 3) pedagogik amaliyotlar jarayoni.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida majburiy va tanlov fanlarini o‘qitish vositasida bo‘lajak ta’lim beruvchilarning individual metodikasi ilmiy va amaliy jihatdan tarkib toptiriladi. Bunda pedagogik turkumdag‘i fanlarning ahamiyati muhimdir. Shu ma’noda “Pedagogika nazariyasi va tarixi”, “Pedagogik mahorat”, “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi”, “Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya va integratsiya”, “Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fani” kabi majburiy fanlarning bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida individual metodikani tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Bunda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari individual ta’lim va tarbiya



asoslari, o'qitishda shaxsning shaxsiy yondashuvlari va vositalari, individual uslub asosida ta'lismi va tarbiya berish mezonlari masalalari bilan ilmiy-nazariy jihatdan qurollanadi. Buning natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida individual metodikaning ilmiy-nazariy asoslari tarkib topadi. Shuni ta'kidlash lozimki, oliv pedagogik ta'lismi muassasalarida o'qitilayotgan majburiy va tanlov fanlarining har birida imkon qadar individual metodika asoslari bo'yicha nazariy va ilmiy bilimlar berish nazarda tutilgan. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida individual metodikaning ilmiy asoslari ta'limning 2-kursidayoq tarkib topadi.

Bo'lajak ta'lismi beruvchilarda individual metodikaning tarkib topishida oliv pedagogik ta'lismi jarayonida amaliy mashg'ulotlar ham muhim o'rinni tutadi. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida professor-o'qituvchilar mavzularini amaliy o'zlashtirish ishini amalga oshiradi va bunda har bir talabaning faol ishtirot etishiga asosisi e'tiborni qaratadi. Buning natijasida bo'lajak ta'lismi beruvchilarda individual metodika rivojlanish xususiyatlariga mos ravishda tarkib topib boradi. Shu sababli oliv pedagogik ta'lismi jarayoni amaliy mashg'ulotlarida talabalarning individual tarzda faol ishtirot etishiga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda har bir talabaning individual metodika bo'yicha taqdimotlar tayyorlashi, referatlar yozishi va tegishli adabiyotlar bilan tanishishi muhim o'rinni tutadi. Shu jihatdan amaliy mashg'ulotlarning bunday imkoniyatlaridan foydalangan holda bo'lajak ta'lismi beruvchilarda individual metodikani tarkib toptirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bo'lajak ta'lismi beruvchilarda individual metodikani tarkib toptirishda pedagogik amaliyotning muhim ahamiyati mavjud. Bunda talabalarning haftalik va maxsus pedagogik amaliyot davrida individual metodika bo'yicha o'zlashtirganlarini tajriba-sinovdan o'tkazishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu ma'noda pedagogik amaliyot davrida bo'lajak ta'lismi beruvchilar mustaqil dars mashg'ulotlarini o'tish, o'zlarining individual metodika asoslari bo'yicha bilimlarini tajribadan o'tkazish va amaliy faoliyatdagi o'qituvchilarining individual metodikasini o'zlashtirishga yo'naltirilishi kutilgan amaliy samarani beradi. Mana shu asoslarga ko'ra, pedagogik amaliyot imkoniyatlaridan foydalangan holda barcha ta'lismi beruvchilarda individual metodikani amaliy jihatdan tarkib toptirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Individual metodikalarni asosan oliv pedagogik ta'lismi jarayonida o'zlashtiriladi. Chunki mamlakatimizda ta'lum muassasalarini oliv ma'lumotli pedagoglar bilan ta'minlash vazifasi belgilangan. Shu sababli individual metodikalarni o'zlashtirishda oliv pedagogik ta'lum muassasalarini bilan hamkorlik imkoniyatlaridan foydalanan muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda barcha umumiyo o'rta ta'lum maktablari hududlardagi oliv ta'lum muassasalariga biriktirilganligini eslatib o'tish joiz. Shu ma'noda mazkur muassasalarining professor-o'qituvchilari boshlang'ich ta'limda individual metodikalarni joriy etish masalasida faol ishtirot etishi taqozo etiladi. Bunda quyidagilarga e'tibor berish muhim ahamiyatga ega:



a) amaliy faoliyatdagи boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilar uchun tavsiyalar berib borish;

b) amaliy faoliyatdagи boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining individual metodikalarini rivojlantirish;

v) amaliy faoliyatdagи boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini individual metodikasini ommalashtirish.

Bugungi kunda oliy pedagogik ta’lim muassasalarida yangiliklar tez ro‘y bermoqda. Shu jihatdan individual metodikaga bo‘lgan yangicha yondashuvlar ham tarkib topib bormoqda. Misol uchun, tushuntirish individual metodikasini mazmunini yangilashga doir yondashuvlar mavjud va unga ko‘ra, mavzular mazmuni misol vositasida amaliy jihatdan tushuntirilishi kerak. Mana shunday yangiliklar va yangicha yondashuvlar bo‘yicha oliy pedagogik ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilar amaliy faoliyatdagи boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga muntazam axborotli tavsiyalar berib borishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu ma’noda amaliy faoliyatdagи boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual metodikalar borasida bo‘layotgan yangiliklardan xabardorligi ortib boradi.

Amaliy faoliyatdagи boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining individual metodikasini rivojlantirib borish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun maktablar biriktirilgan oliy pedagogik ta’lim muassasalarining ilmiy imkoniyatlardan foydalanish, o‘qituvchilarni ilmiy faoliyatga jalb etish va individual metodika bo‘yicha xorijiy mamlakatlardagi tajribalardan xabardor qilish tadbirlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning natijasida amaliy faoliyatdagи boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining individual metodikalari ilmiy asoslarga binoan tabiiy ravishda rivojlanib boradi. Chunki umumiy o‘rtta ta’lim maktablarida axborot-resurslar markazlarining manbalari boy bo‘lgani holda, maktablarda ilmiy muhitni rivojlantirish zaruriyat bo‘lib turibdi. Ilmiy muhim mavjud joyda amaliy faoliyatdagи o‘qituvchilarining individual metodikalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘linadi.

Mamlakatimiz umumiy o‘rtta ta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining o‘ziga xos individual metodika bo‘yicha tajribalarini ommalashtirib borish dolzarb hisoblanadi. Bunda oliy pedagogik ta’lim muassasalari faol bo‘lishi taqozo etiladi, chunki oliy ta’lim muassasalarining hamkorligi keng ko‘lamlidir. Shu ma’noda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining individual metodikasini respublika yoki xalqaro miqyosda ommalashtirishning imkoniyatlari mavjud ekanligini eslatib o‘tish joiz. Individual metodikalarni ommalashtirish ulardan keng ko‘lamli foydalanish jarayonini kuchaytiradi. Buning uchun umumiy o‘rtta ta’lim maktablari biriktirilgan oliy pedagogik ta’lim muassasalarining faol bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Uchinchi bosqich (individual tarkib topish jarayoni). Oliy pedagogik ta’lim jarayonida o‘quv fanlarining nisbatan asosiy qismi mustaqil ta’lim olishga



yo‘naltirilgan. Shu jihatdan bo‘lajak ta’lim beruvchilar oliy pedagogik ta’lim jarayonida mustaqil ta’lim vositasida individual metodika asoslarini o‘zlashtirish imkoniyatiga ega. Bunday o‘zlashtirish jarayoni individual tarzda kechganligi uchun samarali hisoblanadi. Shu ma’noda oliy pedagogik ta’lim jarayonida mustaqil ta’lim vositasida individual metodika asoslarini o‘zlashtirish uchun bo‘lajak ta’lim beruvchilar pedagogik adabiyotlar bilan chuqur tanishishi, individual metodika asoslari bo‘yicha qo‘srimcha ma’lumotlarni Internet va boshqa axborot-kommunikasion vositalar orqali o‘zlashtirishi, pedagogik ilmiy-tadqiqotlar bilan tanishishi va ustoz-shogird an’anasi asosida o‘ziga biriktirilgan o‘qituvchi bilan individual metodika asoslari bo‘yicha birgalikda ishlashi kutilgan samarani beradi. Shu sababli bunday imkoniyatlardan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bizning fikrimizcha, individual tarzda individual metodika asoslarini o‘zlashtirish uchun pedagogik manbalarni o‘qish muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan misol uchun, Abu Ali ibn Sinoning (XI asr) “Donishnama” asarida ta’lim oluvchilarni aqliy, jismoniy va ruhiy jihatdan individual tarbiyalash asoslari tahlil qilib berilgan. Uning fikricha, har bir bola bilan individual ishslash va uning tabiiy layoqatini rivojlantirish ta’lim oluvchida aqliy, jismoniy va ruhiy rivojlanishni keltirib chiqaradi. Yoki mashhur rus pedagogi Konstantin Dmitreyevich Ushinskij (XIX asr) “Metodika” asarida boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlarini, ya’ni Ona tili, Tasviriy san’at, Musiqa va Husnixat (Alifbo) o‘quv fanlarini har bir o‘quvchiga individual o‘qitish asoslarini ko‘rsatib bergan. Uning fikricha, avvalo o‘quvchida qiziqish uyg‘otish, uni mavzuni o‘zlashtirishga to‘g‘ri yo‘naltirish va har bir o‘quvchining fikrini tinglashga e’tibor qaratilishi kerak. Buning natijasida bolang‘ich sinf o‘quvchisida o‘quv fanlari bo‘yicha kutilgan darajada bilim va ko‘nikma tarkib topadi.

Individual metodikalarni o‘zlashtirish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil xarakatlari muhim o‘rin tutadi. Buning uchun bizningcha, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari quyidagilarga amal qilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- individual metodika asoslarini laboratoriya ishlari vositasida o‘zlashtirish;
- laboratoriya ishlarining natijalarini baholab borishga o‘rganish;
- muvaqqiyatlari laboratoriya ishlari bo‘yicha taqdimotlar o‘tkazib borish.

Individual metodika asoslarini o‘zlashtirishda laboratoriya ishlariga tayanish muhim ahamiyatga ega. Chunki laboratoriya ishlarida qo‘ylgan muammo bo‘yicha izlanish va tajriba amalga oshiriladi. Bunda izlanish jarayonida o‘quv adabiyotlari bilan tanishilsa, tajriba ishlari esa pedagogik amaliyat davrida o‘zlashtiriganlarini sinovdan o‘tkazishga asoslaniladi. Natijada bunday pedagogik laboratoriya individual metodikani o‘zlashtirish bo‘yicha muhim imkoniyatlarni beradi. Chunki o‘zlashtiriganlar tajriba-sinovdan o‘tkazilmasa, ularni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha



kelgusida muammoga duch kelinishi mumkin. Shu sababli tajribali pedagoglar laboratoriya ishlariga ko‘proq ahamiyat berishadi.

Individual metodikani o‘zlashtirishda amalga oshiriladigan laboratoriya ishlari natijalarini baholab borish ham muhim ahamiyatga ega. Bunda o‘zlashtirilgan bilimlarni sinovdan o‘tkazish, ularni dars mashg‘ulotlarida qo‘llab ko‘rish va buning natijasida yutuq-kamchiliklarini aniqlashga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki individual metodikani o‘zlashtirish jarayoni nazariya va amaliyot uyg‘unligiga asoslanishni taqozo etadi. Shu sababli individual metodika bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni laboratoriya ishlari vositasi sinovdan o‘tkazish hamda uning natijalarini aniqlash bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi uchun muhim ahamiyatga egadir.

Mamlakatimiz oliy pedagogik ta’lim muassasalarida “Talabalar Akademiyasi” tuzilmasi faoliyat yuritmoqda. Mazkur tuzilma vositasida individual metodika bo‘yicha laboratoriya ishlari asosida o‘zlashtirilganlarini taqdimot qilish muhim amaliy ahamiyatga ega. Bu bilan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini individual metodikadan foydalanish ko‘nikmasini o‘zlashtirib boradi. Chunki taqdimot ishlari taqdim etilayotgan materiallarning ijobiy yoki salbiy jihatlarini namoyon qilish jarayoniga ega. Shu jihatdan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual metodika asoslari bo‘yicha o‘z bilim va ko‘nikmalarini mazkur tuzilma asosida taqdimot qilib borishi ularning amaliy ko‘nikmalari shakllanishiga tayanch bo‘ladi. Bularning barchasi individual metodika asoslарini o‘zlashtirish xususiyatlari hitsoblanadi.

Shunday qilib individual metodika tushunchasi mazmunida har bir ta’lim beruvchining ta’lim va tarbiya bo‘yicha shaxsiy yondashuvga ega bo‘lishi, ta’lim tizimi jarayonida individual metodika asoslarini o‘zlashtirishi va pedagogik amaliyot davrida o‘zlashtirganlarini tajribadan o‘tkazishi muhim o‘rin tutadi. Mazkur jarayon individual metodikalarning ma’no-mazmunini tashkil qiladi.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi. // www.ziyonet.uz
2. Nazarov Q., Qarshiboyev M. Va boshq. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – Toshkent, 2009.
3. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – Toshkent, 2009.
4. Jabborova O.M. Boshlang‘ich ta’limda innovasion texnologiyalar. – Toshkent, 2023

РЕЗИОМЕ

Ушбу maqolada boshlang‘ich ta’limda individual metodikadan foydalanishning mazmuni masalasi tahlil qilingan.

РЕЗИОМЕ

В данной статье анализируется вопрос о содержании использования индивидуальной методики в начальном образовании.

SUMMARY

This article analyzes the issue of the content of the use of individual methods in primary education.